

Psixolog va talabalar uchrashuvi

4-dekabr kuni “Qishloq va suv xo’jaligini energiya ta’minoti” fakulteti 1-kurs talabalari bilan institut psixologi ishtirokida uchrashuv bo’lib o’tdi. Uchrashuvdan maqsad institut psixologi faoliyati bilan talabalarni tanishtirish va targ’ibot qilishdir. Institut psixologi Muhayyo Kamolxonovna Muxamedova talabalarga “Institut psixologining faoliyati” mavzusida taqdimot qildi va psixologning boshqa mutaxassislardan farqi haqida talabalarga ma’lumot berdi. Shu bilan birga institut psixologining institutda olib boradigan faoliyati turlari bilan tanishtirib o’tdi. Yig’ilish so’ngida talabalar institut psixologiga o’zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi. “Institut psixologi faoliyati” to’g’risidagi varaqalar tarqatildi va barcha talabalarga “Psixolog maslahati” kanaliga a’zo bo’lish tavsiya qilindi.



TIQXMMI matbuot xizmati